

**TIL O‘RGANISHNING USULLARI: SAMARALI
NATIJAGA ERISHISH SIRLARI**

Muallif: Shamsiddinova Muhlisa.

Ilmiy rahbar: Usmonova Feruzaxon Raxmonali.

Assalomu alaykum hammaga! Bugun men sizlarga "Til o‘rganishning usullari va samarali natijaga erishish sirlari" haqida ma’lumot berishni boshladim.

Men o‘ylab ko‘rdimki, hozirgi kunda til bilish juda muhim, ayniqsa, oddiy ishga kirish uchun ham til bilishingiz shart. Masalan, oddiy bir misol: siz xohlagan va biron bir do‘konda ishlashni istagan joyingizga bordingiz, keyin ular sizdan, albatta, rus tilini bilish-bilmasligingizni so‘rashadi. Chunki bu yerga ruslar ham juda ko‘p keladi. Hozirgi kunda bizning jonajon yurtimizda inglizlar ham, ko‘plab chet elliklar ham bor, buni siz, albatta, ko‘rgansiz. Yoki boshqa til vakillarini ham uchratishingiz mumkin: hindistonlik, amerikalik, afrikalik, xitoylik, yaponiyalik, koreyalik, ispaniyalik, fransiyalik, turkiyalik, rossiyalik, tojikistonlik, dubaylik va boshqa davlatlar fuqarolarini, albatta, yurtimizda ko‘rishingiz mumkin. Ayniqsa, hozirgi kunlarda va oldin ham yurtimizga ko‘plab turistlar tashrif buyurishmoqda. Demoqchimanki, ularning ko‘pchiligi rus tili va ingliz tilida gaplashadi. Shuning uchun ham hozirgi kunlarda tilga ehtiyoj juda kuchli deb o‘ylayman. Oxir-oqibat bu sizning kelajagingiz uchun ham juda foydali poydevor (fundament) bo‘ladi. Ya’ni yangi hayot boshlashingiz va ishga kirishingiz uchun ingliz tilini ham so‘rashligi mumkin. Ayniqsa, hozirgi kunlarda kamida qo‘shimcha bitta til bilishingiz kerak.

Bu ham siz uchun juda foydali, sababi oylik maoshingiz baland bo‘ladi. Agar siz til bilsangiz, dunyoqarashingiz o‘zgarishni boshlaydi, ya’ni, albatta, yaxshi tomonga. Bu bilan nima demoqchiman? Men sizga oddiy misol keltiraman: ingliz tilini o‘rganishni xohladingiz va boshladingiz, asta-sekin siz yangicha narsalarni o‘rganishni boshlaysiz. Ularning urf-odatlarini o‘rganasiz va olamga boshqacha ko‘z bilan qarashni boshlaysiz, ya’ni o‘z dunyoqarashingiz kengayadi. Qancha til bilsangiz, shuncha yangi ma’lumotlar, yangi rivojlanishlarni bilishni boshlaysiz va hayotingizni yanada qiziqroq qila olasiz. Bu, mening fikrimcha, juda yaxshi. Shuning uchun ham til o‘rganish to‘g‘ri, bu oson ish bo‘lmashligi mumkin, lekin buning rohati juda zo‘r bo‘ladi. Albatta, oson ishning o‘zi yo‘q, bunga oddiy misol: har bir oilada orzu, har bir ishning o‘z tarozi bor. Shuning uchun ham, albatta, siz buni uddalay olasiz, faqat taslim bo‘lmang. Agar hozir til o‘rganishni boshlagan bo‘lsangiz, bu juda yaxshi. Siz, albatta, o‘rganib olasiz, birinchi o‘rinda harakat qiling va hech qachon taslim bo‘lmang, baribir to‘xtasangiz – bu yakun topdi degani. Qiyinchiliklar har doim bo‘ladi. Ayniqsa, qiyinchiliklar bizni hayotda kuchliroq bo‘lishga o‘rgatadi, shuning uchun bu juda yaxshi bo‘lishi mumkin. Siz til o‘rganishda agar ko‘p qiyinchiliklarga uchrayotgan

bo'lsangiz, bu uslublar til o'rganishingiz uchun yordam bera oladi. Albatta, to'xtamang, agar siz har kuni shug'ullansangiz, natija, albatta, bo'ladi, dangasa bo'lmasangiz bas.

Bu usullar til o'rganish uchun eng kerakli yordamni beradi. Misol uchun ingliz tili: siz har kuni telegramga kirib, BBC kanaliga a'zo bo'lib, podkast (podcast) eshiting, bittadan bo'lsa ham. Shunda eshitish qobiliyatingiz yaxshilanadi. Keyin siz har kuni beshtadan so'z yodlang va bu juda oson bo'ladi, ya'ni agar siz kuniga 5 tadan so'z yodlasangiz, oyiga 150 ta so'z yodlagan bo'lasiz. Bu juda yaxshi usul. Agar so'z yodlashga qiynalsangiz, boshqa usuldan foydalanishingiz ham mumkin, bu ham miyangiz uchun juda foydali va umuman to'xtatmasdan natijada siz ko'p so'zlarni yodlab olasiz va bu sizning lug'at boyligingizni oshiradi. Bu siz uchun juda foydali bo'ladi, yana bir samarali va shaxsan o'zimga yaxshi natija bergan usul – bu kichik qog'ozchalar (flashcards) bilan ishlashdir. Bunda kichkina qog'ozning bir tomoniga yangi so'zni, ikkinchi tomoniga esa uning tarjimasini yozib olasiz. Ushbu qog'ozchalarni o'zingiz bilan olib yurib, bo'sh vaqt topildi deguncha (masalan, yo'lda yoki tanaffusda) takrorlab turishingiz mumkin.

Bu usul so'z boyligini tez fursatda oshirishga yordam beradi.

Keyingi usul: har kuni bir betdan ertak, hikoya yoki badiiy asarni ingliz tilida o'qing, bu juda foydali, sizning talaffuzingizni asta-sekin oshiradi. Albatta, o'zingizga yoqqan kitobni o'qing – xohlang rasmlil, xohlang rasmsiz bo'lsin. Chunki bu sizni o'ziga jalb qiladi va qiziqroq bo'ladi. Siz endi o'rganishni boshlagan bo'lsangiz, hali beri ko'p so'zlarni bilmasligingiz mumkin yoki o'qib tushunmayotgan bo'lsangiz, to'xtab qolmasdan o'qing. Shunchaki o'qilsa ham, chunki har bir so'zni o'qiganingizda talaffuzingiz yaxshilana boshlaydi, bu sekin-asta, zo'r bo'ladi. Shuning uchun, agar o'qib tushunmasangiz, xafa bo'lmang yoki to'xtatmang, siz, albatta, shunda boshlaysiz va bema'lol tarjima qila olasiz. Buning uchun to'xtatmasdan va dangasa bo'lmasdan harakat qiling. Keyingi usul: BBC podkast eshitib, har kuni bir minutdan eshitib yozishni boshlang va yozib bo'lganingizdan keyin uni tekshirib chiqing, keyin uni o'qib chiqib, baland ovozda va podkastni eshitganingiz kabi qaytaring. Podkast eshitish bilan va bu sizning tinglash, yozish va talaffuzingizni oshiradi va yana tushunishni ham o'zingiz oson tushuna boshlaysiz, ya'ni tushunish qobiliyatingiz kuchliroq bo'ladi. Keyingisi: bu har kuni bittadan grammatika o'rganing, buni sizni grammatikani yaxshilashga yordam beradi. Kuniga 1 tadan unit ya'ni mavzu o'rganib ishlang, bu ham juda yaxshi usul, grammatikani oshirish uchun, albatta, siz uchun.

Keyin bu eng zo'r usullardan biri bu, albatta, sizga juda yoqadi deb o'ylayman: bu usul kino va mutfilmlar, buni o'zingiz xohlagan paytda ko'ring, asosan bo'sh vaqtingizda ko'rsangiz juda yaxshi ham. Bunda qachon kino ko'rishni boshlaganingizda subtitrlarni yoqib qo'yib ko'rishni boshlashingiz, ya'ni ketidan qaytarib subtitrlarni o'qishingiz ham juda foydali bo'ladi, talaffuzingiz uchun va

speaking (gapirish) uchun, ya'ni gapirishingiz yaxshilanadi, ya'ni asta-sekin gapirishingiz zo'r bo'ladi. Sizni tinglash, tushunish qobiliyatingiz ham yaxshilanadi, bu, albatta, siz uchun oson usul va juda samarali usul sizning til o'rganishingiz uchun. Keyin bu usulni xohlagan tilni o'rganish uchun ushbu uslublardan bimalol foydalanib, tilni oson o'rganishingiz mumkin, albatta, siz hammasini qila olasiz, taslim bo'lmang.

Xulosa

Til o'rganish — bu marafon, qisqa masofaga yugurish emas. Unda muvaffaqiyatga erishish uchun eng muhim narsa — bu muntazamlikdir. Xalqimiz bejizga "Til bilgan — el biladi" demagan. Har bir yangi til — bu sizning dunyoga ochilgan yangi bir derazangizdir. Xato qilishdan qo'rqmang, chunki xatolar — bu o'sishning asosiy belgisidir. Dunyoqarashingizni kengaytirishdan to'xtamang!